



Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘li

Vaxobjonova Guljahon

Rohataliyeva Orifa

Musalova Lobar

Rustamova Farangiz

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk shoir, sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijodi va sulolasi haqida so‘z yuritiladi. Boburning temuriylar sulolasiga mansubligi, bolaligi, ta‘lim olishi, davlat boshqaruvidagi faoliyati va harbiy yurishlari batafsil yoritiladi. Shuningdek, uning adabiy merosi, g‘azal va ruboiylari tahlil qilinadi. Maqolada Boburning she‘riyati, uning tarixiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, Sharq adabiyotiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqola Boburning shaxsiyati, ijodi va temuriylar sulolasining o‘rni haqida chuqurroq ma‘lumot olishni istagan kitobxonlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, yo‘lbars, Amir Temur, sulola, Xo‘ja Ahror, Mironshoh Mirzo, Umarshayx Mirzo, Farg‘ona viloyati

Bobur 1483-yili 14-fevralda Andijon shahrida, Farg‘ona ulusining hokimi Umarshayx Mirzo va asli chingiziylardan bo‘lgan malika Qutlug‘ Nigor Xonim oilasida dunyoga keladi. “Bobur” so‘zi forsiy tilidan “babr”, ya’ni “bars”, “yo‘lbars” degan ma’noni



bildiradi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Sohibqiron Amir Temur avlodidan. Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzoning evarasi bo'lgan.

Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni, Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Bobur ota tomondan Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzo naslidan bo'lsa, ona tomonidan Tug'luq Temurxonning o'g'li Xizr Xo'jaxon naslidan edi uning yettinchi avlodi edi.

Otasi tomondan:

Amir Temur ko'ragon (1336-1405)

Mironshoh Mirzo (1366-1408)

Sulton Muhammad Mirzo (1408-1449)

Sulton Abu Said ko'ragon (1424-1469)

Umarshayx Mirzo ko'ragon (1456-1494)

Bobur (1483-1530)

Onasi tomondan:

Tug'luq Temurxon (1329-1362)

Xizr Xo'jaxon (1358-1399)

Muhammadxon (? – 1416)

Sharalixon (taxtga chiqmagan)

Uvaysxon (1418-1425-yillarda)

Yunusxon (1468-1487)



Yunusxonning qizi Qutlug' Nigorxonim (1457-1504)

Bobur (1483-1530)

Boburning onasi o'qimishli bo'lgan va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan „Bobur“ („Sher“) laqabini oladi.

Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur so'fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnoma“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi (1494-yil iyun).

Movarounnahr XV asr oxirida o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pdan ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilar mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shilib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2—3-yilida mavqeini



mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.

Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494-yil iyul) dan keyin taxtga o‘tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so‘ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o‘rniga Buxoroda hokim bo‘lgan o‘g‘li Boysung‘ur o‘tiradi. 1495—1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi, Boysung‘ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og‘ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo‘shinni ta‘minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axsi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o‘girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o‘tadilar. Andijondan ko‘ngli notinch bo‘lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og‘ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng, uni tark etishga qaror qiladi, ammo Xo‘jandga yetganda Andijon ham qo‘ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o‘tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog‘asi Mahmudxon ko‘magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo‘shiniga salbiy ta‘sir etib, ko‘pchilik bek, navkarlar (700—800 kishi) Boburni tark etadi. O‘ziga sodiq kishilar (200—300) bilan qolgan Bobur ma‘lum muddat Xo‘jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma‘lum muddat o‘tgach, Bobur Xo‘jandga qaytadi, ko‘p o‘tmay, Marg‘ilonni qo‘lga kiritadi hamda



Andijonni egallash tadbirlarini ko‘radi. Nihoyat, 2 yildan so‘ng (1498-yil iyun) uni qayta qo‘lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida „Xo‘jand suvining Axsi tarafi viloyatlarini...“ qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi.

Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499-yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha bosib boradi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499-yil), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500-yil), biroq shahar aholisi va zodagonlarining ma‘lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da‘vat etganlar. Bobur 1500-yil kech kuzida o‘z qo‘shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shaharlarida Bobur hokimligi e‘tirof etiladi, ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501-yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501-yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi.

Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon 1451-yilda Temuriylar davlatida Boburning bobosi Abu Saidning hokimiyat tepasiga kelishiga yordam bergan. Shu bilan birga, Abulxayrxonning qizi Xonzoda Abu Saidga turmushga chiqqan. Uning qizidan nabirasi Temuriylar oilasining Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasida dafn etilgan[3].



O‘zbek xoni Abulxayrxon 1450-yilda Ulug‘bekning qizi Robiya sulton begimga (1485-yil vafot etgan) uylangan. Ularning nikohidan Suyunchxo‘jaxon, Ko‘chkunchixon va Oq Burun sultonlar tug‘ilgan. Suyunchxo‘jaxon va Ko‘chkunchixonlar shayboniylar orasida katta nufuzga ega bo‘lib Turkiston, Toshkent va Movarounnahrni idora etganlar. Ko‘chkunchixon Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin Shayboniylar davlatini boshqargan.

Shayboniyxon Boburning amakivachchasi, Mahmudxonning qizi – Oysha Sulton xonimga uylangan, u Mug‘ul xonim nomi bilan tanilgan va xon umrining oxirigacha uning hurmatli rafiqasi bo‘lgan. Boburning yana bir amakivachchasi, Qutluk Xonim, shayboniyzoda Jonibek Sulton bilan turmush qurgan.

1519-yilda Bobur she‘riy to‘plamining qo‘lyozmasini Samarqandga Ko‘chkunijxonning o‘g‘li, shoir Po‘lat Sulton Shayboniyga yuboradi.

1520-yillarda Bobur shayboniylar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatdi. Boburning o‘zi ta’kidlaganidek, 1526–1527-yillarda Hindistonni bosib olish paytida o‘zbek sarkardalari – sultonlar: Qosim Husayn Sulton, Bihub Sulton, Tang Atmish Sulton, shuningdek, G‘ozipurdan Mahmudxon Nuxani, Baba Kashka, Tulmish O‘zbek, Qurbon Chaxri uning tarafida jang qilishgan.

1528-yilda Shayboniylar Boburga elchilarni yuborib, uni Hindistondagi g‘alabasi bilan tabriklaydilar.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab



oladi. 1501–1504-yillarda Bobur Fargʻona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolariga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning toʻxtovsiz janglari va ogʻir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qoʻllamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur boʻladi.

Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va gʻazallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli gʻazali va „Yod etmas emish kishini gʻurbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi oʻsha yillardagi hayoti bilan bogʻliq.

Boburning ulkan sanʼatkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga koʻtara oladi va natijada asarlarida olgʻa surilgan gʻoyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga koʻtariladi. Bobur ijodida, xususan, sheʼriyatida kindik qoni toʻkilgan ona yurtini dildildan qoʻmsash, uning tuprogʻiga talpinish, gʻariblik azoblaridan oʻtli hasrat, yor-u diyor sogʻinchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosoʻzliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli oʻrin tutadi. Uning gʻazal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida maʼshuqaning maftunkor goʻzalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va oʻynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Boburning uz sheʼriy asarlarini toʻplab, devon holiga keltirgan sanani koʻrsatuvchi aniq tarixiy maʼlumotlar maʼlum emas. Ammo „Boburnoma“ning 1518—1519-yillar voqealari bayoniga bagʻishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi toʻgʻrisida soʻz boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.

Hozirda uning 119 gʻazali, bir masnu sheʼri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qitʼalari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham oʻrin olgan.



1526-yil 21-dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo'diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo'shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko'p yillik mashaqqatli va qo'nimsiz hayot ta'sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi.

1527-yil oktabrida Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o'zi e'tiqod qo'ygan Xoja Ahror Valiy ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan „Volidiya“ asarini she'riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo'lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o'z e'tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog'ayib ketgan. Bu yillarda u „Boburnoma“ fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangi-yangi g'azal-ruboiylar yaratdi, o'z iborasi bilan aytganda, „Hindistong'a kelgali aytqon ash'orni“ tartibga solib, shuningdek, „Volidiya“ tarjimasini, „Xatti Boburiy“ bilan bitilgan namuna va qit'alarni Movarounnahr va Afg'onistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindol va boshqalarga yuboradi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo'lgan.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o'zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539-yil), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan „Bog'i Bobur“ga qo'yildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 .https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bobur#cite_ref-1
2. Khafiz-i Tanysh Bukhari. Sharaf-name-yi shakhi (Kniga shakhskey slavy). Nauka. 1983
3. Bobur. Tanlangan asarlar. T.: 1958; Bobur. Asarlar. Uch jildlik.-T.: Fan, 1965-66; Bobur. Boburnoma. -T.: 1960, 1989; Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971
4. Bobur O'zME. B-harfi Birinchi jil. Toshkent, 2000-yil
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bobur>